

Ўзбекистон тумани йуллардан фойдаланиш унитар корхонаси бундан буён «ПУДРАТЧИ» деб юритилувчи амалдаги низомга асосан ҳаракат қилувчи бошлиқ шахсидан О.Джуроев ва Ўзбекистон туман Ободонлаштириш бошқармаси бундан буён «БУЮРТМАЧИ» деб юритилувчи амалдаги низомга асосан ҳаракат қилувчи бошлиқ шахсидан Ф.Муратов ушбу шартномани қуйидагилар тугрисида тузадилар.

### 1. ШАРТНОМА МАЗМУНИ.

1.1 «ПУДРАТЧИ» уз кучи, асбоблари механизмлари билан «БУЮРТМАЧИ» га қаршли Учбулак МФЙ ички йулларини 1,4 км қисмини жорий таъмирлаш ишлари шартномага илова қилинувчи сметага мувофиқ жорий таъмирлаш ишларини амалдаги техник шартларга риоя қилган ҳолда таъмирлаш мажбуриятлари уз зиммасига олади.

1.2 «ПУДРАТЧИ» тегишли проект-смета ҳужжатларига мос ҳолда «БУЮРТМАЧИ» томонидан биноларни таъмирлаш ишларини келишилган вақтда бажариш ва уни қамчиликларсиз тулик тайёр ҳолда уз муддатида «БУЮРТМАЧИ» га топширишни уз зиммасига олади.

1.3 «ПУДРАТЧИ» иш бажариш вақтида қурилиш монтаж ва таъмирлаш ишлари учун кетадиган қурилиш материалига ва ишчи кучини уз ҳисобидан узни таъминлайди.

1.4 «ПУДРАТЧИ» томонидан қилинган ишлар якунлангандан кейин Ф-2, Ф-3 далолатномаларини «БУЮРТМАЧИ» узининг мутахассисларини иштирокида қабул қилиб олади.

### 2. ШАРТНОМА БАХОСИ.

1. Шартноманинг умумий баҳоси 423641729 (Тўрт юз йигирма уч миллион олти юз қирқ бир минг етти юз йигирма тўққиз) сумни ташқил қилади.

2.2 Шартнома баҳоси уз ичига КМИ материаллар баҳоси тафовутини олади.

### 3. ТУЛОВ ШАРТЛАРИ.

3.1 Ушбу шартнома буйича «БУЮРТМАЧИ» томонидан «ПУДРАТЧИ» ҳисоб рақамига 30% аванс туловини утқазиб беради.

3.2 Тулов шакли «ПУДРАТЧИ» томонидан Ф-2, Ф-3 ҳужжатларини тасдиқлангандан сунг солиштирма далолатномаси ва ҳисоб фактурага асосан «БУЮРТМАЧИ» «ПУДРАТЧИ» нинг ҳисоб рақамига тугридан тугри пул утқазиб беради.

3.3 Шартнома буйича охириги ҳисоб-китоб иш тулик тамомлангандан сунг 20 кундан кечиктирмай «БУЮРТМАЧИ» томонидан амалга оширилади.

### 4. МАЖБУРИЯТЛАРНИ БАЖАРИШ МУДДАТЛАРИ.

4.1 «ПУДРАТЧИ» ушбу шартномани 1-булимида назарда тутилган ишларини 30-кун муддатда бажаради.

4.2 «БУЮРТМАЧИ» «ПУДРАТЧИ» томонидан бажарилган ишга бажарилган ишлар ҳужжатлари тула тасдиқлангандан сунг 30 кун ичида ҳақ тулайди, ёки ёрдамчи «Пудратчи» нинг розилиқ хатига асосан «Пудратчи» дан мавжуд булган қурилиш материаллари билан ҳисоб-китоб қилинади.

4.3 Шартнома 2022 йил 3.03 2022 йил 31-декабргача амал қилади.

### 5. ТАРАФЛАРНИНГ МАЖБУРИЯТЛАРИ.

5.1 «ПУДРАТЧИ».

5.1.1 Уз кучи техника воситаси билан календар иш режаёнида назарда тутилган барча ишларни тула ҳажмда ва муддатда бажариши ва тегишли лойиҳа ҳужжатларидаги ҳолатда ишларни «БУЮРТМАЧИ» га меёрый ҳужжатлар талабига ва қондалар асосида топшириш:

5.1.2 Обектга лойиҳага биноан булган материалларни конструкцияларини бутловчи ашёларни етқазиб бериш ва уларни қабул қилиш тушириш тахлаш ҳамда сақлашни амалга ошириш:

5.1.3 Ушбу шартнома буйича ишларни бажариш учун жалб қилинадиган махсус ташкилотлар билан субподряд шартномаги тузганини тугрисида «БУЮРТМАЧИ» га ахборот бериш ва у томонидан ишларни бажарилиши юзасидан назоратни таъминлаш.

5.1.4 Техника хавфсизлиги, ёнгин хавфсизлиги ва обектни қурилиши буйича зарур чора тадбирларини бажарилишини таъминлаш:

5.1.5 «ПУДРАТЧИ» назорати туловларидан келиб чиккан ортикча иш ҳақи ҳажми учун жавоб бермайди.

«ПУДРАТЧИ» (ёлланма) ташкилотлар узлари бажарган иш ҳажмлари учун узлари жавоб бериш мажбуриятини олади.

5.2 «БУЮРТМАЧИ»

5.2.1 Календар иш режаси белгиланган ҳажмда ва муддатда ҳажми «ПУДРАТЧИ» га топшириш;

5.2.2 У шартномани 1-булимида назарда тутилган ишлар шартномада белгиланган микдорда ва муддатда «ПУДРАТЧИ» га ҳақ тулаш;

5.2.3 «ПУДРАТЧИ» дан ёзма хабарнома олган санадан бошлаб 2 ҳафта ичида обектни қабул қилиш мажбуриятларини олади.

### 6. ТАРАФЛАРНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ

- 6.1 Тарафлар шартнома буйича мажбуриятларни бажариш муддатларини бузганлиги учун айбдор тараф бошқа тарафга кечиктирилган хар бир кун учун шартнома бахосининг 0.5% хисобида пеня тулайди лекин шартноманинг 2,1 бандида курсатиб утилган сумманинг 50 % дан ошмаслиги керак.
- 6.2 Тарафлардан бири ушбу шартнома буйича мажбуриятларни бажармаган ёки лойиха даражада бажармаган холларда айбдор тараф бошқа тарафга бой берилган фойдани кушиб курган зарарни коплайди.
- 6.3 Пеня тулаш тарафларни мажбуриятларини бажариш ёки бузилиш хукукий бартараф етишдан озод этмайди.

#### 7. ФОРС-МАЖОР ХОЛАТЛАРИ

- 7.1 Тарафларни биронтаси хам ушбу шартнома буйича олган мажбуриятларини тарафларни эрки ва истагидан ташкари пайдо булган ва уларни олдиндан кура билиш ёки бартараф этиш мумкин. Будмаган холатлар бундан уруш эълон килиниши ёки амалда бошланганлиги фуқоралик тартибсизлиги, вабо таркалиши, блокада, эмбарго, эр кемириши сув тошқини ёнгинни ва бошқа табиий холатлар билан боглик холда бажармаганлиги учун жавобгар булмайди.
- 7.2 Бартараф килиб булмайдиган кучларнинг мавчудлиги ёки амалда давом этмаганлиги Узбекистон Республикаси хукуматининг шунга оид карорлари ёки бошқа ваколатли органлари томонидан берилган гувоҳномалар унинг етарли даражасидаги таслиги хисобланади.
- 7.3 Уз мажбуриятларини бажармаган тараф шартнома буйича мажбуриятни бажармаган тараф шартнома буйича мажбуриятни бажариш унинг тьсир курсатиш ёки монелик килиш тутрисида бошқа тарафга имкон кадар тез хабар бериш лозим.
- 7.4 Агар бартараф килиб булмайдиган кучлар 3 ой давомида мунтазам тасир этаётган булса ва тугаш белгилари аникланмаса ижара берувчи шартнома бекор килиши мумкин.

#### 8. НИЗОЛАРНИ ХАЛ КИЛИШ ТАРТИБИ.

- 8.1 Тарафлар уртасида ушбу шартнома буйича ёки у билан пайдо булган барча низолар ёки келишмовчиликлар тарафлар уртасида музокара йули билан хал килинади.
- 8.2 Агар келишмовчиликлар музокара йули билан хал килиб булмаса, улар конки хужжатларида белгиланган тартибда иктисодий судида курилиши лозим булади.

#### 9. ШАРТНОМАГА КУШИМЧА ВА УЗГАРТИРИШЛАР КИРИТИШ ТАРТИБИ.

- 9.1 Ушбу шартнома хар кандай киритиладиган кушимча ва узгартиришлар ёзма равишда расмийлаштириб хар иккала томон имзолаган холларда сунг конуний кучга эга булади.
- 9.2 «БУЮРТМАЧИ» куйидаги холларда шартномани бекор килишга хақлидир:
- 9.2.1 «ПУДРАТЧИ» нинг айби билан ишларни боришини сусткашлик билан муддати 1 (бир) ой ун (10) кунга ошиб кетганда.
- 9.2.2 «ПУДРАТЧИ» нинг шартнома шартларини бузиш натижасида курсатилган ишларини сифати пасайганда.
- 9.3 «ПУДРАТЧИ» куйидаги холларда шартномани бекор килишга хақли;
- 9.3.1 «БУЮРТМАЧИ» томонидан «ПУДРАТЧИ» га боглик булмаган сабаблар буйича курилиш-монтаж ишларининг боришини 1 ойдан ошадиган муддатга тухтатиб турганда;
- 9.3.2 «БУЮРТМАЧИ» томонидан лойиха хужжатларини узгартиришлар киритиш билан боглик холда ишларни бахоси 50% кунга камайганда.
- 9.3.3 «БУЮРТМАЧИ» томонидан кейинчалик курилиш молиялаш имконияти йукотилганда.
- 9.4 «БУЮРТМАЧИ» «ПУДРАТЧИ» нинг биргаликдаги карори буйича шартнома бекор килинади.
- «БУЮРТМАЧИ» эса «ПУДРАТЧИ» га улар томонидан аникланган бажарилган ишлар хажми кийматини тулайди.
- 9.5 Шартнома бекор килишга карор килган тараф бошқа тарафга ёзма хабарнома юборилади.

#### 10. БОШКА ШАРТЛАР.

- 10.1 «ПУДРАТЧИ» амалдаги тартиб ва кондалар буйича бажарилган ишлар сифатига 1-йил муддатга кафолат беради. Ушбу бандга риоя килинмаган холларда бажарилган ишлар шартномавий кийматининг 2 баробари миқдорда жарима тулайди.
- 10.2 Хар иккала томон Узбекистон Республикаси конунлари доирасида фаолият курсатадилар.
- 10.3 Мазкур шартнома 2022 йил 31-декабргача амал килади

#### 11. ТАРАФЛАРНИНГ ЮРИДИК МАНЗИЛЛАРИ ВА ТУЛОВ РЕКВИЗИТЛАРИ.

##### «БУЮРТМАЧИ»

Узбекистон тумани Ободонлаштириш бошкармаси  
 Манзил: Яйпан ш А Навоий кўчаси № 29 уй  
 Тел./факс: + 998905090507  
 ШҲҲ: 401722860302307065200110092  
 ИНН: 200 189 280  
 Ўзбекистон тумани буйича Газначилик бўлини маси  
 ЯҲҲ: 23 402 000 300 100 001 010  
 Банк номи: Марказий банк ХҚҚМ Тошкент ш.Б.Б.  
 МҲО: 00 014      СТИР: 201 122 919

Буюртмачи рахбари

Ф Муратов

##### «ПУДРАТЧИ»

Ўзбекистон туман йуллардан фойдаланиш унитар корхонаси  
 Манзил: Ўзбекистон т. Қумбости к. Жар кўчаси  
 Тел./факс: + 998755394316  
 Миллий банк Қўқон филиали Хамза 43  
 МҲО 00545    ИНН: 200188282  
 Х/Р: 22626000500223338002  
 ОКНХ: 61129

Директор:

О.Джуроев



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI  
O'ZBEKISTON TUMAN ADLIYA BO'LIMI  
YURIDIK XIZMAT KO'RGATISH MARKAZI

101000, O'zbekiston tumani, Yaypan shahri, Ziyorat ko'chasi,  
Tel: (00371) 529 15 30, e-mail: o'zbekiston.tumanad@adliya.uz

2022-yil 3-iyun

Yaypan shahri

### YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'IRISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi : Shartnoma.
2. Loyihaning nomi: Mahsulot yetkazib berish shartnomasi.
3. Loyihani ishlab chiqqan tashkilot: O'zbekiston tumani Obodonlashtirish boshqarmasi.
4. Loyiha yuzasidan ma'lumot:

O'zbekiston tumani Obodonlashtirish boshqarmasi va "O'ZBEKISTON TUMANI YO'LLARDAN FOYDALANISH UNITAR KORXONA" unitar korxonasi o'rtasida jami summasi 423.641.729 (to'rt yuz yigirma uch million olti yuz qirq bir ming yetti yuz yigirma to'qqiz ming) so'm bo'lgan O'zbekiston tumani Uchbulak MFY ichki xo'jalik yo'llarini 1,4 km qismini joriy ta'mirlash ishlari shartnomaga ilova qilinadigan smetaga muvofiq amaldagi texnik talablarga rioya qilingan holda amalga oshirish shartnomasi loyihasi huquqiy xulosa olish uchun taqdim qilingan.

O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga asosan yuridik shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar xo'jalik shartnomalarining subyektlari (tarafdari) bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 41-moddasiga ko'ra, yuridik shaxs o'zining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyati maqsadlariga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'ladi.

Yuridik shaxsning huquq layoqati u tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi va uni tugatish yoki qayta tuzilgan paytdan e'tiboran tugatiladi.

Fuqarolik kodeksining 44-moddasi birinchi qismiga muvofiq yuridik shaxs qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish haqidagi ma'lumotlar barchaning tanishib chiqishi uchun ochiq bo'lgan yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy veb-saytidan olingan ma'lumotga asosan "O'ZBEKISTON TUMANI YO'LLARDAN FOYDALANISH UNITAR KORXONA" unitar korxonasi 1994-yil 31-martda tuman holdiymatidan 82/3-raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasi birinchi qismiga ko'ra, xo'jalik shartnomasi shartnoma predmetini, yetkazib beriladigan tovarning (ishning, xizmatning) miqdori, sifati, assortimenti va bahosini, shartnomaning bajarilish muddatlarini, hisob-kitob qilish tartibini, taraflarning majburiyatlarini, shartnoma majburiyatlarini bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda taraflarning javobgarligini, nizolarni hal etish tartibini hamda taraflarning rekvizitlarini, shartnoma tuzilgan sana va joyini, shuningdek bunday turdagi shartnomalar uchun qonunchilikda belgilangan yoki taraflardan birining arizasiga ko'ra o'zaro kelishuvga erishish lozim bo'lgan boshqa muhim shartlarni nazarda tutishi kerak. Shartnoma loyihasida mazkur Qonun talablariga amal qilingan holda mazkur shartlar nazarda tutilgan.

Fuqarolik kodeksining 108-moddasiga asosan yuridik shaxslarning o'zaro bitimlari oddiy yozma shaklda tuzilishi belgilangan. Taqdim etilgan shartnomasi oddiy yozma shaklda tuzilgan. Shartnomaga shartnoma tuzish vakolati bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanishi lozim.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RIQ-684-sonli Qonunning 56-moddasi birinchi qismiga ko'ra, eng yaxshi takliflarni tanlash vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul foidasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi;

tovarning (ishning, xizmatning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (budget buyurtmachilari uchun olti ming baravarigacha) bo'lgan miqdorni tashkil etadi.

Mazkur Qonunning 61-moddasi yettinchisi qismiga muvofiq summasi bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining eilik baravari miqdordan oshmaydigan (budget buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdoridan oshmaydigan) tanlash xarid komissiyasining ishtirokisiz o'tkazilishi mumkin, biroq bir moliya yilida bir korporativ buyurtmachi uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir ming baravari miqdordagi summadan ko'p bo'lmasligi va bir moliya yilida bir budget

buyurtmachi uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravari miqdoridan oshmasligi kerak. Bunda g'olib davlat buyurtmachi tomonidan tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni joylashtirmasdan, ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo'li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) potensial yetkazib beruvchilaridan narxlarni so'rash yo'li bilan aniqlanadi. Rasmiylashtirilgan hujjatlar, tuzilgan shartnomalar va ularga doir qo'shimcha kelishuvlar to'g'risidagi axborot ular rasmiylashtirilgan yoki tuzilgan sanadan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay davlat buyurtmachi tomonidan maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

Mazkur Qonunning 62-moddasi birinchi qismida "Takkiflarni taqqoslash natijalariga ko'ra xarid komissiyasi tanlash g'olibini aniqlaydi va tanlash o'tkazish natijalarini bayonnomada aks ettiradi," deb belgilangan.

O'zbekiston tumani Obodonlashtirish boshqarmasining xarid komissiyasining 2022-yil 1-iyundagi 90517-sonli majlis bayoniga asosan "O'ZBEKISTON TUMANI YO'LLARDAN FOYDALANISH UNITAR KORXONA" unitar korxonasi bilan shartnoma tuzilishi belgilangan.

"Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunning 63-moddasi birinchi qismiga asosan tanlash natijalariga doir shartnoma tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida tuziladi. Taqdim etilgan hujjatlarini o'rganib chiqib, yuqoridagilarga asoslangan holda

#### XULOSA QILAMAN:

O'zbekiston tumani Obodonlashtirish boshqarmasi va "O'ZBEKISTON TUMANI YO'LLARDAN FOYDALANISH UNITAR KORXONA" unitar korxonasi o'rtasida jami summasi 423.641.729 (to'rt yuz yigirma uch million olti yuz qirq bir ming yetti yuz yigirma to'qqiz ming) so'm bo'lgan O'zbekiston tumani Uchbulak MFY ichki xo'jalik yo'llarini 1,4 km qismini joriy ta'mirlash ishlari shartnomaga ilova qilinadigan smetaga muvofiq amaldagi texnik talablarga rioya qilingan holda amalga oshirish shartnomasi loyhasi qonun hujjatlariga muvofiq hisoblanadi.

Markaz bosh yuridikshaxsi



A.Turdiyaliyev

Ўзбекистон ТЙФУК билан Ўзбекистон тумани Ободонлаштириш бошқармаси  
ўртасидаги 2022 йил 03 июндаги №24686 сонли ҳамкорлик шартномасига  
№24686-2 сонли ҚЎШИМЧА КЕЛИШУВ

« 8 » 04 2022 йил

Фарғона шаҳри

Кейинчалик «Пудратчи» деб юритилувчи Ўзбекистон ТЙФУК си номидан директори О. Джўраев бир томондан ва кейинчалик «Буюртмачи» деб юритилувчи Ўзбекистон тумани Ободонлаштириш бошқармаси бошқарма бошлиғи Ф.Муратов иккинчи томондан мазкур қўшимча келишувни қуйидагилар тўғрисида туздилар:

2. Ўзбекистон Республикаси Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий ҳуқуқий базаси тўғрисидаги қонуннинг 15-моддасига асосан шартномага қуйидагича ўзгартиришлар киритади.

- Эски тахрирда пудратчининг банк ҳисоб рақами 2262 6000 5002 2333 8002 бўлган .

- Янги тахрирда пудратчининг банк ҳисоб рақами 2021 0000 8002 2333 8001 этиб белгилансин.

2. Мазкур қўшимча келишув икки (2) нусхада тузилади ва барча нусхалар тенг юридик кучга эгадир ҳамда 2022 йил 03 июндаги №24686 сонли шартноманинг ажралмас қисми ҳисобланади.

3. Қўшимча келишув «Буюртмачи» ва «Пудратчи» томонидан имзоланиб, Ҳазначилик бошқармасида белгиланган тартибда рўйхатдан ўтказилганидан сўнг қонуний кучга кирилади.

4. Асосий шартноманинг қолган бандлари ўз кучида қолади.

6. Томонларнинг манзиллари ва банк реквизитлари.

«ПУДРАТЧИ»

Ўзбекистон тумани йўллардан  
фойдаланиш унитар корхонаси  
Манзил: Ўзбекистон т. Қумбости қ-ғи  
Тел./факс: 539-43-16  
х/в: 2021 0000 8002 2333 8001  
Банк номи: Миллий банк,  
Қўқон филиали  
МФО – 00545  
СТИР: 200188282  
ИФУТ: 61129

«БУЮРТМАЧИ»

Фарғона вилояти Ўзбекистон тумани  
Ободонлаштириш бошқармаси  
Манзил: Ўзбекистон тумани Яйпан ш А.Навоий  
кучаси №29 уй  
Тел./факс: +998905090507.  
шҒХ: 401722860302307065200110002  
Ташкилотнинг СТИРи: 200189280  
Фарғона вилоят ғазначилик бошқармаси  
ЯҒХ: 23402000300100001010  
Банк номи: Марказий банкнинг Тошкент шаҳар  
Бош бошқармаси ҲҚҚМ  
МФО: 00014  
Ҳазначилик бўлинмасининг  
СТИРи: 201122919



Директор:

О.Джўраев



Бошқарма бошлиғи:

Ф.Муратов